

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

OTAYEVA SALAMAT SABIROVNA

**SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA
TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(PEDAGOGIK MAHORAT FANINI O‘QITISH MISOLIDA)**

13.00.02. –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon-2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Otayeva Salamat Sabirovna

“Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi” (Pedagogik mahorat fanini o'qitish misolida) 5

Отаева Саламат Сабировна

Методика развития научно-исследовательской деятельности студентов на основе лично-ориентированного подхода (на примере преподавания дисциплины Педагогическое мастерство)26

Otayeva Salamat Sabirovna

Methodology of developing students' scientific research activity based on an individualized approach (on the example of teaching Pedagogical skills)..... 52

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 56

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

OTAYEVA SALAMAT SABIROVNA

**SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA
TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(PEDAGOGIK MAHORAT FANINI O‘QITISH MISOLIDA)**

13.00.02. –Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2 PhD/ Ped7505 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.kspi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Quchqorova Nargiza Mamajonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Safarova Rohat Gaybulloyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD .03/29.12.2022. Ped.132.02. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "31" "05" soat 9⁰⁹ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Telefon: (998) 73-542-38-38; faks: (998) 73-542-02-57, e-mail: quqondpi@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi, 23-uy. Telefon: (998) 73-542-38-38)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20" "05" kuni tarqatildi.
(2025-yil "20" "05" da "3" - raqamli reestr bayonnomasi).



N.Sh. Erkaboyeva

N.Sh. Erkaboyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

L.R. Xayitov
L.R. Xayitov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

M.R. Kadirova
M.R. Kadirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta'lim hamda ilmiy tadqiqot markazlarida kelajak kasb egalarini ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish, iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularda mustaqil fikrlash, kreativlik, yaratuvchanlik, faoliyatga kompetensiyaviy yondashuv orqali ilmiy tadqiqot faoliyatiga o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar qabul qilgan Incheon deklaratsiyasida "Biz barcha sharoitlarda va ta'limning barcha darajalarida hamma uchun sifatli umrbod ta'lim imkoniyatlarini targ'ib qilishga intilamiz. Barcha darajalarda sifat kafolatini hisobga olgan holda texnik, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda adolatli hamda kengaytirilgan ta'lim tashkil qilinadi"¹ – deya e'tirof etilishi talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishni taqozo etadi.

Dunyoda oliy ta'lim tizimida o'quv - tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish orqali samaradorlikka erishish uchun talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ilmiy - tadqiqot faoliyatini tarkib toptirishda nazariya va amaliyotni bir-biri bilan bog'liqligini anglash, tahlil, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, prognoz qilish, refleksiv yondashuv, axborot va hodisalarni mustaqil ravishda tahlil qilish, tadqiqot madaniyatini shakllantirish, olingan natijalarni amaliyotga tadbiiq etish, o'z g'oyalarini ilgari surish orqali shaxsiy takliflarni kiritish va uni himoya qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda "O'zbekiston-2030" strategiyasining 12-maqсадida barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratilgan. Ana shu maqsadga asosan 2030-yilgacha erishiladigan maqsadning samaradorlik ko'rsatkichida har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish² belgilab olingan. Bu maqsad yoshlarni ilm-fan va texnologiyalar sohasiga jalb qilishning muhimligini ko'rsatadi hamda ilmiy tadqiqotlar orqali milliy iqtisodiyotda real o'zgarishlar qilish imkoniyatini yaratadi.

2019-yil 29-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni, 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi VMQ-824-sonli Qarori, 2017-yil 20-aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, 2019-yil 3-mayda "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4306-sonli Qarorlari, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-sonli, 2021-yil 1-aprelda "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi PF-6198-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga

¹ Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22-may 2015, Incheon, Republic of Korea). 48 p.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son farmoni.

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi PF-158-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy –ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Respublikamizda oliy ta'lim muassalarida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini kasbiy sohada qo'llash bilan bog'liq ilmiy izlanishlar mahalliy olimlardan B.X.Raximov, B.X.Xodjayev, A.K.Raximov, S.N.Allayorova, L.T.Razikova, U.A.Usmanova, L.Z.Namazboyeva, O.S.Nurova, G.B.Kurbanova, J.R.Turmatov, I.B.Asqarovlar tomonidan olib borilgan bo'lsa, ilmiy tadqiqot faoliyatida pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalarning ahamiyati A.A.Xoliqov va N.N.Azizxodjayevalar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ish ko'rish masalasi R.G.Safarova, V.B.Ma'murov, A.A.Ashurov, B.A.Haydarova, Ch.A.Sobirova, G.R.Tojiboyevalar tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan O.V.Ибрянова, М.Н.Арцев, О.В.Акопян, М.А.Исаева, И.Г.Насталовская, Ю.В.Казаков, Б.В.Першуткин va boshqalar oliy ta'lim talabalarini ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda loyihaviy-tadqiqot madaniyatini shakllantirish masalalariga, И.С.Якиманская, Е.В.Бондаревской В.В.Сериков, Н.А.Едилина, С.Л.Рубинштейн, А.Н.Леонтовлар shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va uni amaliyotga tadbiiq qilinishiga alohida e'tibor qaratishgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan A.H.Bandura, J.P.Guilford, E.P.Torrens A.H.Maslou, C.R.Rogerslar tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv orqali ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish masalalarida izlanish olib borishgan.

Tadqiqot ishining muammosi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi pedagogik mahorat fanini o'qitish misolida maxsus ilmiy tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: Dissertatsiya ishi Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan texnologiyalari" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Pedagogik mahorat fanini o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasiga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning nazariy – metodologik asoslarini aniqlashtirish;

shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish tamoyillari va mezonlarini tahlil qilish;

pedagogik mahorat fanini o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning metod va fasilitatsion texnologiyalarini aniqlash va amaliyotdagi holatini asoslash;

shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini pedagogik mahorat fanini o‘qitish jarayonida rivojlantirish metodikasi samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish jarayoni belgilanib, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti va Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filialidan jami 350 nafar respondentlar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini pedagogik mahorat fanini o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida o‘rganilayotgan muammoga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, so‘rovnoma, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar, tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning umumiy tendensiyalari, pedagogik kategoriyalari va tamoyillari shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan mashg‘ulotlarning intensivligini ta‘minlashga qaratilgan motivatsion, kognitiv, riskologik, ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan faoliyatini identivligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim orqali talabalarni ilmiy tadqiqotga yo‘naltirishning motivlari, faoliyatga doir tashkiliy – pedagogik strategik maqsadlariga muvofiq ijodiy, innovatsion – reflektiv ko‘nikmalarni shakllantirishning dinamik ketma – ketligi ilmiy loyiha va grantlar, milliy va xalqaro platformalardan foydalanishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

Parsial dastur asosida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning interfaol metodlari, grafik organayzerlarni o‘zgarishlar kontekstida yaratilgan empirik va nazariy shart-sharoitlarning ierarxik darajasi ta‘lim uzviyligini individuallashtirish, tabaqalashtirish hamda talaba ichki ehtiyojlarini hisobga oluvchi tamoyillarni tizimli, shaxsiy faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetentli yondashuvlarga ustuvorlik berish, funksional jarayonli blokni ijod tafakkur diagrammasini belgilash asosida takomillashtirilgan;

shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari talabalarning rivojlanish vektorini integral tizimlari ilmiy tadqiqot sifat parametrlarini tavsiflashga imkon beradigan koʻrsatkichlarni aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda aksini topgan:

shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish pedagogik-psixologik muammo ekanligi asoslanib, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning mezonlari, koʻrsatkichlari hamda oʻquv - uslubiy taʼminoti ishlab chiqilgan;

talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish boʻyicha Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 19-iyindagi 233-sonli buyrugʻiga asosan “Maktabgacha taʼlimda STEAM texnologiyalari” nomli oʻquv qoʻllanma chop etilgan;

Pedagogik mahorat fanini oʻqitish jarayonida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash, shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni amalga oshirish, zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan foydalanish, oʻqituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan faoliyatni samarali tashkil etishga doir ilmiy maʼlumotlar Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrugʻiga asosan “Pedagogik mahorat” darsligida chop etilgan;

shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishga doir Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi № DGU 29935 raqami bilan roʻyxatga olingan elektron dasturiy taʼminot ishlab chiqilgan;

talabalarni ilmiy tadqiqotga samarali yoʻnaltirish, ilmiy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish, ilmiy tadqiqot usullarini chuqur tahlil qila bilish kabi zarur koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratilgan “Shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida amaliy mashgʻulotlarda talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish usullari” nomli uslubiy qoʻllanma yaratilgan;

talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga doir ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan talabalarning soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalarini asoslashda statistik maʼlumotlarga tayanilganligi va matematik qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlarning muammo mazmuniga mosligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalar vakolati tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuv asosida pedagogik mahorat fanini oʻqitish jarayonida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari yaratildi, ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish mazmuni, mezonlari va koʻrsatkichlari ishlab chiqildi, ilmiy tadqiqot malakalarini ilmiy asosda

rivojlantirish bosqichlari aniqlandi, parsial dasturdagi ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilishning zamonaviy metodikalarini yaratishga qaratilgan ilmiy xulosalardan psixologiya, pedagogika ta'lim yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Parsial dastur va "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish" modeli, "Pedagogik mahorat" darsligida asoslangan g'oyalar va takliflar, olingan natijalar va tavsiyalardan talabalarni ilmiy tadqiqotga yo'naltirishda, tezis, ilmiy maqola, KI va BMLlarni yozishda hamda innovatsion, startap loyihalarni tayyorlashda, xalqaro ilmiy bazalarda H-indeksni oshirishda, o'quv-qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, pedagogik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy-metodologik va amaliy tavsiyalar asosida:

talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning umumiy tendensiyalari, pedagogik kategoriyalari va tamoyillari shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan mashg'ulotlarning intensivligini ta'minlashga qaratilgan motivatsion, kognitiv, riskologik, ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyatini identivligini hisobga olish hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali talabalarni ilmiy tadqiqotga yo'naltirishning motivlari, faoliyatga doir tashkiliy – pedagogik strategik maqsadlariga muvofiq ijodiy, innovatsion – reflektiv ko'nikmalarni shakllantirishning dinamik ketma – ketligi ilmiy loyiha va grantlar, milliy va xalqaro platformalardan foydalanishga oid ma'lumotlar Pedagogik mahorat nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'iga asosan ro'yxatga olingan 537-233 raqamli nashr ruxsatnomasi) Natijada, Pedagogik mahorat fanini o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asosan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Parsial dastur asosida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning interfaol metodlari, grafik organayzerlarni o'zgarishlar kontekstida yaratilgan empirik va nazariy shart-sharoitlarning ierarxik darajasi talim uzviylikini individuallashtirish, tabaqalashtirish hamda talaba ichki ehtiyojlarini hisobga oluvchi tamoyillarni tizimli, shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan, kompetentli yondashuvlarga ustuvorlik berish, funksional jarayonli blokni ijod tafakkur diagrammasini belgilashga doir ma'lumotlar "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan. (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-0292 son guvohnomasi) Natijada, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari talabalarning rivojlanish vektorini integral tizimlari ilmiy tadqiqot sifat parametrlarini tavsiflashga imkon beradigan ko'rsatkichlarni aniqlashga oid ma'lumotlar Pedagogik mahorat nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'iga asosan ro'yxatga olingan 537-233 raqamli nashr ruxsatnomasi) Natijada, Pedagogik mahorat fanini o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asosan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 5 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, xalqaro konferensiyalarda 5 ta, respublika konferensiyalarida 7 ta tezis, xalqaro jurnallarda 3 ta maqola, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta DGU, 1 ta o'quv-uslubiy qo'llanma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, 123 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati pedagogik-psixologik muammo sifatida tahlil qilinib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish tamoyillari, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning amaliyotdagi holati masalalari yoritilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va talabalar ilmiy tadqiqot faoliyati pedagogik muammo sifatida tahlil qilinib, falsafiy, psixologik va metodik jihatdan Demokrit, Arastu, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlarning qarashlarida ilmiy bilimlarni egallash, analik tafakkurga ega bo'lish g'oyalari ilgari surilgan. Ilmiy tadqiqotga yo'naltirish faqat ma'lumot to'plash emas, balki mavjud bilimlarni tizimli o'rganish, tahlil qilish va aniq faktlar asosida tajriba natijalarini aniqlab, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish jarayonidir. Mamlakatimiz olimlaridan B.X.Raximov, L.T.Razikova, A.K.Raximov, S.N. Allayorovalar tadqiqotida bakalavriat talabalarini o'quv jarayonida ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlashni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shartlari ko'rsatilgan bo'lsa, N.N.Azizxodjayeva, A.A.Xoliqovlar pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishdagi ahamiyatini tahlil

qilishgan. I.S.Yakimanskaya, V.V. Serikovlar tadqiqotida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ichki motivatsiya, hissiy va kognitiv jihatlar orqali talabanning o'z tajribasini rivojlantirish, psixolog olimlar J.P.Guilford va E.P.Torrens ilmiy tadqiqotlarda ijodiy fikrlashni va ijodkorlikni o'rganishgan. Shuningdek, pedagogik- psixologik ensiklopediyalar tahlil qilib o'rganilishi natijasida tadqiqot mavzusiga doir asosiy tushunchalar ilm, bilish, bilim, tadqiqot, ilmiy tadqiqotchilik, tadqiqotchilik kompetensiyasi kabi tushunchalarni o'rganishda turli yondashuvlar keltirib o'tilgan. O'rganishlar natijasida ilmiy bilim, ilmiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash hamda ilmiy faoliyat talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi sifatida shakllantirildi. Shuningdek, tahlil qilingan fikr mulohazalardan kelib chiqib ilmiy tadqiqot faoliyati va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tushunchalariga mualliflik ta'rifini keltirib o'tamiz.

-Ilmiy tadqiqot faoliyati-bu tadqiqotchidagi mavjud tafakkur, dunyoqarash, intellektual bilimlardan foydalanib aniq mutaxassislik bilimlariga asoslangan holda isbotlangan yangi bilimlarni yaratishga intilish jarayoni.

-Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabanning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va dunyoqarashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, uning o'zini anglashi, kreativ yondashuvi va ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan samarali faoliyat natijasini anglatadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish qonuniyatlari, tamoyillari tadqiqot faoliyatini tizimli, ongli tushunish va ilmiy jihatdan anglashni asoslash jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni taqazo etadi. Bejiz, Prezidentimiz "Kadrlar zaxirasini yaratish maqsadida "ta'lim-ilm-tadqiqot" tamoyili asosida har bir oliygohning o'quv dasturlari "yashil" va "raqamli" iqtisodiyotga yo'naltirish uchun transformatsiya qilinadi"³-deya ta'kidlamagan. Tizimli yondashishga asosan ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil qilish barcha elementlarning o'zaro bog'liqligini va ular orasidagi uzviy ta'sirlarni inobatga olishni talab qilishini ko'rsatadi.

O'quv reja va malaka talablariga muvofiq pedagogik mahorat fanini o'qitishda kredit-modul tizimi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanishi hamda mavzularni o'zaro bog'langan ilmiy bilimlar sifatida ko'rib chiqishi lozim. Bunda har bir o'quv kursi, modul va mavzu o'zining aniq maqsadlari va natijalari bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak. Kredit-modul tizimi talabalarga o'z ta'lim traektoriyasini mustaqil ravishda tanlash va o'zgartirish imkonini berishni ta'minlab, ularning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlariga, ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borishga va pedagogik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotimizda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish tamoyillari aniqlashtirildi. Natijada, pedagogik mahorat fanini o'qitish orqali talabalarda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asosan o'qituvchi faqatgina bilim beruvchi sifatida emas, balki ta'lim faoliyatining tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi, fasilitator, suhbatdosh, tadqiqotchi, ekspert, maslahatchi sifatida harakat qiladi.

³ Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", "O'zbekiston" nashriyoti, 2022-y. 218-b.


Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish parsial dastur va oldindan ishlab chiqilgan rejaga asosan tashkil etildi. Pedagogik mahorat fani orqali talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil qilishda pedagogik mahorat fani tarkibiga kiritilgan mavzular asosida ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar ishlab chiqildi hamda olimlarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish borasidagi qarashlarni tahlil qilgan holda quyidagi tamoyillar aniqlashtirildi:

- ilmiylik va tizimlilik tamoyili;
- akademik halollik;
- talabalarda media kompetentlikni shakllantirish tamoyili;
- pedagogik qobiliyatlarni va muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqotga yo'naltirish tamoyili;
- refleksiv faoliyat va natijaviylik tamoyili;
- talabaning individualligi va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish tamoyili;
- talaba fikrini hurmat qilish, ilmiy tadqiqotga yo'naltirish orqali pedagogik mahoratga ega bo'lish tamoyili.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning amaliyotdagi holatini o'rganish O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarga mosligi namoyon bo'ldi. Shuningdek, ta'lim dasturi, namunaviy o'quv rejani o'rganish bilan birga Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarida pedagogik faoliyat hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil qilishda talabaning kasbiy vazifalari, bakalavrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan umumiy va kasbiy talablar tahlil qilindi, Fan dasturlari ("Pedagogika nazariyasi tarixi", "Kreativ pedagogika", "Pedagogik mahorat", "Komporovistik pedagogika", "Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi") ni tahlil qilish orqali talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda pedagogik mahorat fanining ahamiyati kattaligi oydinlashdi. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining ilmiy tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishlari, o'rganish jarayonidagi ehtiyojlari va ilmiy izlanishlarga bo'lgan tayyorgarlik darajalari so'rovnomalar asosida aniqlanib, ilmiy tadqiqot faoliyatini bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab rivojlantirish, parsial dasturni pedagogik mahorat fani mavzulari mazmuni bilan bog'liq holda ishlab chiqilishiga ahamiyat berildi. Shuningdek, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish komponentlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirib olish maqsadida ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, riskologik, ilmiy tadqiqotga yo'naltirilgan kabi komponentlari belgilab olindi. (1-rasm)

Belgilab olingan komponentlar asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning to'rt guruh mezonlari aniqlashtirildi: motivatsion-izlanuvchanlik, intellektual-kognitiv, riskologik-farazli, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ilmiy faoliyatga yo'nalganlik.

Mazkur mezonlar asosida uch (yuqori, o'rta va past) darajaga mos ko'rsatkichlar aniqlandi.



1-rasm. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish komponentlari.

Ikkinchi bob "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi" deb nomlanib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning didaktik ta'minoti, talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda milliy saytlar va xalqaro ilmiy platformalarning o'rni, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish texnologiyalari va modeli yoritib berilgan.

Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish ikki yo'nalishda tashkil etiladi. 1. Auditoriya mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqot ishlari, 2. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar bilan bo'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari.

Auditoriya mashg'ulotlari bilan bog'liq ilmiy faoliyatlar ma'ruza mashg'ulotida ilmiy adabiyotlar, metodologiya va nazariyalarni o'rganish, amaliy

mashg'ulotlarda ushbu nazariyalarni tajriba orqali sinab ko'rish, maxsus kurslar va seminarlar bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari, to'plangan tadqiqot materiallari asosida referat, doklat va ma'ruzalar tayyorlash kabilarda namoyon bo'ladi. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ilmiy faoliyat ilmiy fan to'garaklari, olimpiadalar, tanlovlar, ilmiy-uslubiy seminarlar, grant, shartnoma asosida olib boriladigan tadqiqot ishlari, ustoz-shogird tizimidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi.


Hozirgi kunda respublikamizni oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarni izlab topish hamda talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish sektori va bo'limlari faoliyat ko'rsatadi. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonida auditoriya soatlari va mustaqil ta'lim soatlarining to'g'ri taqsimlanishi talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda tezis, ilmiy maqola, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi yozish metodikasi tavsiflandi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali ilmiy tadqiqotga yo'naltirishga motivatsiya hosil qilib, faoliyatga doir ijodiy, innovatsion – reflektiv ko'nikmalarni shakllantirishda loyiha tayyorlash va milliy, xalqaro platformalardan foydalanishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Loyiha - bu oldindan rejalashtirilgan, aniqlangan ehtiyoj yoki muammoni hal etishga qaratilgan, chegaralangan vaqt, mablag' va resurslar doirasida amalga oshiriladigan izchil faoliyatlar tizimidir. O'zbekiston Respublikasidagi milliy platformalar sayt manzillaridan maqsadli foydalanish ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida talabalar uchun zarur bo'lgan resurslar, ma'lumotlar, ta'lim sohasidagi siyosat, dasturlar, ta'lim tizimi rivojlanishiga oid eng so'nggi yangiliklarni va xizmatlarni taqdim etadi. Foydalanuvchilar uchun mustaqil ta'lim olishida hamda tezis, maqola, KI, BMI, ilmiy loyihalar bilan bog'liq ma'lumotlarni oson topish va samarali foydalanish imkonini beradi. Milliy platforma tadqiqotchida ilmiy izlanishlarni samarali amalga oshirish, ilmiy jamoa bilan hamkorlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro platformalar yirik hajmdagi ilmiy ma'lumotlarni o'zida jamlagan qulay adaptiv interfeysga ega qidiruv tizimi, mualliflar, iqtiboslar darajasi, global ta'lim tizimlarining samaradorligini baholash, olimlar, tashkilotlar va davlatlar o'rtasida ilmiy hamkorlikni mavjudligi talabalar uchun ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirishda muhim vosita ekanligini anglatadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda dastlab Parsial dastur yaratilishida pedagogik mahorat darsi mazmuni bilan uzviy bog'langan holda ishlab chiqilishiga alohida ahamiyat berilgan. Parsial dasturda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda an'anaviy metodlarga asoslangan nazariy bilimlarni berish hamda interaktiv o'qitish usullari, grafik organayzerlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarni faol ishtirok etishga, muammolarni yechishga shuningdek, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, bu esa talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish ishlari quyidagi yo'nalishlarda pedagogik mahorat fani bilan uyg'unlashadi: ma'ruzalarda, amaliy mashg'ulotlarda, mustaqil ta'lim olishda,

auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, malakaviy amaliyotda, bitiruv ishlari davomida.

Tadqiqot ishini olib borishda talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatini metodik rivojlantirish fasilitatsion texnologiyalar STEAM, EVENT, TRIZ asosida takomillashtirildi.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi, fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarini integratsiyalashgan tarzda o'rganishni taqdim etadi. STEAM texnologiyasi mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. Bunda talabalar ilmiy tadqiqot faoliyati zarurligini anglab yetadi, boshqa fanlarning o'zaro bog'liqligini tushunadi, bilimlarni tizimli tarzda o'rganadi, ilmiy metodologiyaga asoslangan yondashuv, kreativ fikrlash, mustaqil tahlil qilish, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish, muloqot madaniyati, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va vaqtni boshqarish kabi ko'nikmalari shakllanadi.



2-rasm. STEAM texnologiyasi

EVENT (Experiential Virtual Environment for Networking and Training) texnologiyasi – bu tarmoq qurish va o'qitish uchun mo'ljallangan tajribaviy virtual muhitni taqdim etuvchi texnologik jarayondir. EVENT texnologiyasining asosiy xususiyatlari virtual muhitda o'qitish, interaktivlik, tarmoq qurish va kommunikatsiya, simulyatsiyalar va treninglar, malaka oshirish kabilardan iborat.


Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini Pedagogik mahorat fanini o'qitish jarayonida metodik takomillashtirishning EVENT texnologiyasi quyidagi jadval asosida ishlab chiqildi.

Event texnologiyasi yordamida pedagogik mahorat fanini o'qitish orqali ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi		
Bosqichlar	Mazmuni	Shakl, metod va vositalar
1-modul Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari	Pedagogik mahoratni o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati, kasbiy pedagogik bilimlar, pedagogik qobiliyatlardan bilish, tushuntira olish, perseptiv, nutq, tashkilotchilik, obro' orttira olish, kommunikativ, diqqatni taqsimlay olish, kelajakni ko'ra bilish, samarali muloqot, ta'lim jarayonida ishonch, ochiqlik kabilarni talabalarda tarkib topdirish	Individual, kichik guruhli, munozara, treninglar, muammoli vaziyatlar asosida suxbat, aqliy hujum, internet saytlari
2-modul. Ta'lim jarayonida o'qituvchi mahorati	Nutqdagi ravonlik, aniqlik, ta'sirchanlik, mantiqlilik, tozalik, ifodalilik ilmiy tadqiqotga yo'naltirishda muhim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv shaxsiy maqsadlar, motivatsiya va o'z-o'zini baholash, turli texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash, talabalarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurroq tushunish, analitik fikrlash va kreativ yondashuvlarini rivojlantiradi.	Ommaviy, guruhli, individual, ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltiruvchi videoroliklar, keyslar, fikrlar hujumi, munozara
3-modul O'qituvchining ilmiy faoliyatga yo'naltirishdagi mahorati	Referat, tezis, maqola yozish, kurs ishi, BMI yozish, turli tanlovlarda ishtirok etish, ilmiy amaliy konferensiyalarida ishtirok etishda ilmiy platformalardan foydalanish	Individual, ommaviy, guruhli, elektron tizimlar, www.ziyonet.uz , www.natlib.uz , www.edu.uz , Unilibrary
4-modul O'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilish	O'qituvchi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, o'qituvchi fasilitator sifatida, media ta'limi vositasida sharqona immunitetni shakllantirish, pedagogik nazokat va etika.	Individual, ommaviy, guruhli, elektron tizimlar scholar.google.com, ResearchGate, Academia.edu Scopus, Web of Science

3-rasm. Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini Pedagogik mahorat fanini o'qitish jarayonida metodik takomillashtirishning Event texnologiyasi.


TRIZ (Teoriya resheniya Izobretatelskix zadach) texnologiyasi, Genrix Alt Shuller tomonidan 1946-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlar yaratish uchun samarali metodologiya hisoblanadi. TRIZ-texnologiyasining maqsadi fikrlash, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarni

rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Yechim vositalaridan foydalanish orqali fanlararo bog'lanishlar yanada tushunarli bo'lib, talabalar tomonidan o'zlashtirishni osonlashtirib ilmiy tadqiqotlarda samarali vosita sifatida qo'llaniladi.



4-rasm. Triz texnologiyasining ishlash mexanizmi.

Nazariy va eksperimental izlanishlar natijasida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.



5-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish modeli

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi “Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish samaradorligi”

deb nomlanib, unda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish hamda tajriba –sinov ishlari natijalari va tahlili bayon etilgan.

Tajriba- sinov ishlari Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Urganch davlat universiteti va Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali bazasida 2021-2024-yillar davomida o‘tkazilgan. Tajriba sinov ishlari kutilgan natijani berganligi tadqiqotda asoslanib ko‘rsatilgan, uning samaradorligi haqidagi ijobiy xulosalar tasdiqlangan. Tajriba-sinov ishida mamlakatimizning uchta oliy ta‘lim muassasalaridan jami 350 nafar talabalar ishtirok etishdi. Tajriba sinov davrida tadqiq etilayotgan muammoning quyidagi: Pedagogik mahorat fanini o‘qitish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari, pedagogik shart-sharoitlari, mezon va darajalari asosida izlanishlar olib borildi.

Tajriba-sinov ishimizdagi natijalarni matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba avvalida va tajriba so‘ngida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib yuqori, o‘rta va past darajalar bo‘yicha baholandi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha tajriba avvalidagi(T.a) va tajriba so‘ngidagi (T.s.) ma’lumotlarni umumiy jadvalini keltiramiz(1-jadval).

1-jadval

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumlashgan tajriba avvalidagi(T.a.) va tajriba so‘ngidagi (T.s.) natijalari

	Mezonlar	Tajriba guruhi (Respondentlar soni-188)						Nazorat guruhi (Respondentlar soni-162)					
		Yuqori		O‘rta		Past		Yuqori		O‘rta		Past	
		T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s.	T.a.	T.s	T.a	T.s
1	Motivatsion-izlanuvchanlik	43	85	70	74	75	29	33	42	58	59	71	61
2	Intellektual-kognitiv	46	86	72	75	70	27	34	43	59	58	76	61
3	Riskologik-farazli	45	89	69	72	74	27	35	46	55	62	72	54
4	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ilmiy faoliyatiga yo‘nalganlik	42	88	73	71	73	29	38	45	56	61	68	56
Umumiy o‘rtacha		44	87	71	73	73	28	35	44	57	60	70	58

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so‘ngida.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarning nazorat guruhi talabalariga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali ekanligi aniqlandi. Bu holatni ob‘yektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy,

pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

